

TURIZM INFRATUZILMASINI MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETUVCHI VOSITALAR

Mamayunusov Temurbek Olimovich

“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS

XALQARO UNIVERSITETINING MUSTAQIL TADQIQOTCHISI

Mamayunusov97@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15268116>

Annotatsiya: Turizmning kelajakda rivojlanishi birinchi o‘rinda turizm infratuzilmasini rivojlanishi bilan belgilanadi. Uning umumiy tuzilmasini iqtisodiy yoki siyosiy hayot tashkil etadi. U butun bir iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi bir maromda kechadigan hayot faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan. Maqolada Turizm infratuzilmasini mohiyati va uni tashkil etuvchi vositalar izohi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, infratuzilma, mehmonxona, motel, kemping, mehmon uylar, ovqatlantirish korxonalari, restoran, bar, kafe, aloqa, yo‘llar, aeroport, kema, kommunikatsiya, elektr tarmoqlari, oqova suv tarmoqlari, chiqindilarni to‘plovchi korxonalar, huquqni himoya qilish, jamoat tartibini saqlovchi idoralar, tibbiyot, maishiy xizmat, do‘kon, sport inshootlari.

Аннотация: Будущее развитие туризма в первую очередь определяется развитием туристической инфраструктуры. Его общая структура – это экономическая или политическая жизнь. Оно направлено на обеспечение гармоничной жизни экономического и политического характера. В статье описывается сущность туристической инфраструктуры и инструменты входящие в ее состав.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, гостиница, мотель, кемпинг, гостевые дома, предприятия общественного питания, ресторан, бар, кафе, связь, дороги, аэропорт, корабль, связь, электрические сети, сети сточных вод, предприятия по сбору мусора, правоохранительные органы, органы общественного порядка, медицина, бытовое обслуживание, магазин, спортивные сооружения.

Abstract: The future development of tourism is primarily determined by the development of tourism infrastructure. Its general structure is formed by economic or political life. It is aimed at ensuring the harmonious functioning of life activities of a single economic and political nature. The article provides an explanation of the essence of tourism infrastructure and the means that form it.

Key words: tourism, infrastructure, hotel, motel, camping, guest houses, catering establishments, restaurant, bar, cafe, communication, roads, airport, ship, communication, power grids, sewage networks, waste collection enterprises, law enforcement, public order agencies, medicine, household services, shops, sports facilities.

Kirish. Infratuzilma (lotincha “Infra” - ostida, pastda, “struktura” - tuzilma, joylashuv) tizimning ishlashini ta‘minlaydigan va bir-biriga chambarchas bog‘langan xizmat ko‘rsatish tuzilmalari yoki obyektlar to‘plamidir. Uning umumiy tuzilmasini iqtisodiy yoki siyosiy hayot tashkil etadi. U butun bir iqtisodiy va siyosiy xarakterdagi bir maromda kechadigan hayot faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan. Iqtisodiy infratuzilmaga transport, aloqa, kommunikasiya, ta‘lim va kommunal xo‘jalik, turar-joy, turmush tarziga o‘rgatish, aholining birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish majmui kiradi.

Boshqacha aytganda, infratuzilma aholi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xo'jalik va madaniy obyektlar, uning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarini tashkil qiluvchi (yo'llar, kanallar, omborlar, transport, aloqa, energetika, suv ta'minoti, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo'lib hisoblanadi.

Infratuzilma xususan ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarga bo'linadi. Ijtimoiy o'ziga sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va boshqa-larni qamrab oladi.

Asosiy qism. Infratuzilma elementlari turli xil belgilariga qarab tasniflanishi mumkin. Infratuzilmani keng miqyosli mezonlari bo'yicha xalqaro, milliy, hududiy, shahar, qishloq infratuzilmalariga ajratiladi. Faoliyat sohasi mezonlariga ko'ra, infratuzilma ijtimoiy, boshqaruv va texnologik sohalar bilan chegaralanadi.

Shu singari, turizm infratuzilmasi turizm sohasining ajralmas qismi bo'lgan ikki elementni o'z ichiga oladi.

Birinchi element – bu mehmondo'stlik industriyasi bo'lib, unga turar joy va ovqatlantirish xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar kiradi.

Ikkinchi element – infratuzilmaning tarkibiy qismlari bo'lib, u uch bosqichli tizimni o'z ichiga oladi.

Infratuzilmaning birinchi bosqichi turmahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo turistik xizmatlarni taqdim etish uchun zarur bo'lgan binolar, transport, aloqa, energetika, kommunal xizmatlar, moliya, sug'urta, xavfsizlik tizimlarini o'z ichiga oladi.


Infratuzilmaning ikkinchi va uchinchi tizimiga turistik faoliyat va turmahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniyalar, taksi parklari, kafe va restoranlar, sport kulublari, muzeylar, kinoteatrlar, ko'rgazma zallari, parklar va boshqa korxonalar va tashkilotlar kiradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, turistik infratuzilmalar o'z tarkibiga joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, motellar, kempinglar, mehmon uylar), ovqatlantirish korxonalari (restoran, bar, kafe), aloqa yo'llari yig'indisi (yo'llar, aeroportlar, kemalar h.k.), kommunikatsiyalar (elektr tarmoqlari, oqova suv tarmoqlari, chiqindilarni to'plovchi korxonalar, aloqa, bo'limlari), huquqni himoya qilish, jamoat tartibini saqlovchi idoralar, tibbiyot tashkilotlari, maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, do'konlar, sport inshootlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bog'langandir.

Turistik infratuzilmalar turistik zaruriy shart-sharoitlarni, sayyohlarning xavfsizligi, sog'liq-salomatligini ta'minlashga qaratilgan. Ma'lumki, sayyoh uchun qaysi bir joyda tinchlik osoyishtalik, maishiy qo'laylik yaratilgan bo'lsa, u o'sha joyga borishga intiladi. Turist avtomobildami, poyezddami, mehmonxonadami qisqasi qayerda bo'lmasin u o'zini xavf-xatarsiz holda sezishi, unga zarurat bo'lganda birinchi yordam ko'rsatilishi zarur.

Turizm infratuzilmasi oldiga qo'ygan maqsad va vazifani bajarishi uchun uning shakllangan tuzilmasi bo'lishi lozim. Shuning uchun turizm infratuzilmasi tarkibini quyidagi 1-rasmda keltirib o'tamiz.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va shakllantirish ustida tadqiqotlar olib borgan olimlari va tadqiqotchilar turli xil vaqtlarda va sharoitlarda o'zlarining xulosalarini berganlar. Bunda olimlar va tadqiqotchilarning fikrlarini bir tizimga keltirib o'tamiz.




1-rasm. Turizm infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi¹.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ahamiyati shundaki, infratuzilma –turistik sektorga xizmat qiladigan inshootlar, muxandislik va kommunikasion tarmoqlar majmuasi. shu jumladan telekommunikasiyalar, yo'llar, turizm sanoatining tegishli korxonalari (qayta ishlash, maishiy, energetika), turistlarning sayyohlik obyektlariga kirish-chiqish uchun qulay sharoitlar yaratish va ulardan turizm uchun maqsadli foydalanishni, shuningdek turizm industriyasi korxonalarining ishlash imkoniyatlarini ta'minlaydi. Yanada aniqroq qilib oladigan bo'lsak, turizm infratuzilmasi - turistik sektorning ishlashi uchun mo'jallangan, sayyohlik tashkilot-larining turistik resurslaridan maqsadli foydalanishini, shuningdek, turizm industriyasi korxonalarining ishlash sharoitlarini ta'minlay-digan sanoat, ijtimoiy va rekreatsion maqsadlari uchun mavjud tuzilmalar va tarmoqlar majmuidir degan tushunchani berishimiz mumkin.

Xulosa. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning ahamiyati shundaki, u turizm sektorining bir maromda ishlashi uchun turistik resurslardan samarali, to'g'ri foydalanishni ta'minlash va turizm industriyasi korxona-lari faoliyatini yaxshilashni ta'minlaydi. Turizm infratuzilmasi qanday shakllantirilganligi va ishlashini turistik xizmatlar bozori belgilab beradi. Turistik xizmatlar bozori ham o'ziga xos infratuzilmaga egadir (2-rasm).

¹ Tadqiqotchi ishlanmasi .



2-rasm. Turistik xizmatlar bozori infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi².

Turizm infratuzilmasini tashkil qiladigan asosiy vositalar ustida to'xtaladigan bo'lsak, transportning ahamiyati katta bo'lib, turistlarga xizmat ko'rsatishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Buning boisi shundan iboratki, barcha turistik yo'nalishlarda (piyodalardan tashqari) sayohatchilarning dam olish yoki ekskursiya chiqishi va ularning uyga qaytishi uchun transport vositasi bo'lishini taqazo qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Mamatqulov. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. -T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011. -4
2. Tunca Toskay, Turizm Olayina Genel Yaklasim, 3- Basim, Der Yayinlari; № 26, Istanbul, 1989. – S.20.
3. Tunca Toskay, Turizm Olayina Genel Yaklasim, 3- Basim, Der Yayinlari; №26, Istanbul, 1989. – S.20.
4. Walter Hunziker, Un Siecle de Tourisme en Suisse, Berne, 1947. P.11.
5. J.Christopher Holloway., The Business of Tourism, Third edition, Pitmen Publishing Ltd, London, 1989. P. 9.
6. J.Christopher Holloway., The Business of Tourism, Third edition, Pitmen Publishing Ltd, London, 1989. P. 9-10.
7. Мирзаева Ш. Н. и др. Локальные Международные Глобальные Рынки: Интеграция И Развитие //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2025. – Т. 16. – С. 87-91.
8. Мирзаева Ш. Н., Ворисов Ш. Д. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2025. – Т. 16. – С. 40-43.

² Tadqiqotchi ishlanmasi .

9. Мирзаева Ш. Н., Назаров Н. Б. У. СБАЛАНСИРОВАННОЕ РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА, ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2025. – Т. 16. – С. 44-47.
10. Мирзаева Ш. Н., Ашуров С. З. Анализ Инвестиционного Климата В Узбекистане, Состояние И Перспективы //GlobalBiz Summit: Business and Economic Strategies for the Future. – 2025. – Т. 1. – С. 72-75.
11. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., KHURSHEDOVICH A. A. TOURISM CLUSTERS IN THE DIGITAL ECONOMY //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2024. – Т. 5. – С. 133-141.
12. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., KUVONCH R. EXPANSION OF THE SERVICE SECTOR IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE CHANGES IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 90-98.
13. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., ALIASKAR M. IMPORTANT ASPECTS OF THE THEORY AND METHODOLOGY OF MEASURING SOCIAL CAPITAL //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 49. – С. 167-174.
14. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., MUROD S. DIGITALIZATION OF SOCIAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE SERVICE SECTOR //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 80-89.
15. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., FIRUZA A. ECOTOURISM AS A TOOL FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND POVERTY REDUCTION //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2024. – Т. 5. – С. 123-132.
16. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S. SUBHONZODA SH THE EXPERIENCE OF OTHER COUNTRIES IN THE LEGAL REGULATION OF ECOTOURISM //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 122-131.
17. SAIDAKHMEDOVICH S. T., NODIROVNA M. S., TOLIBOVNA T. D. P. O. F. S. B. AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE COMPETITIVE ENVIRONMENT OF THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 268-277.